

## LOYIHAVIY TA'LIM ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

**Rafikova Dilafruz Kaxxoralievna**

*Farg'ona davlat universiteti, Pedagogika kafedrası v.b., dotsenti  
p. f. b. f. d, (PhD)*

**Ilyosova Sevinch Adhamjon qizi**

*Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi, magistratura 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada ta'limni moderniztsiyalsh sharoitida pedagog kadrlar tayyorlashga qo'yilayotgan zamonaviy talablar, jumladan loyihalash kompetentligining shakllanishi asosida yangi metodlar, vositalar, texnologiyalar va tashkiliy shakllarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish, loyihalash kompetentligini shakllantirishning samarali yo'llari shuningdek, loyihaning mazmuni, hajmi, tarkibiy qismlari, ularni mantiqiy izchillikda strukturalash va resurslar vaqt, vosita, imkoniyat bilan muvofiqlashtirish, loyihalash ko'nikmasining muhim ko'rsatkichlari, loyiha ustida ishlash bosqichlarini oldindan puxta loyihalash, har bir bosqichda bajariladigan faoliyatning xususiyatlarini belgilash va aniq harakatlar rejasini ishlab chiqish pedagogdan yuqori darajadagi tashkiliy va konstruktiv tayyorgarlikni talab etadilishi va loyihaviy faoliyat jarayonida tadqiqot elementlarini egallash muhimligi ilmiy asoslangan.

**Tayanch so'zlar:** Ta'limni moderniztsiyalsh, prognoz qilish, loyihalash kompetentligi, kasbiy kompetensiya, loyihaviy faoliyat, pedagogik loyihalash, refleksiya, konstruktiv, innovatsion ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik faoliyat, bilim, ko'nikma, malaka, o'qituvchi, umumdidaktik, psixologik, pedagogik tayyorgarlik, ta'lim jarayoni, subyekti, anglash, dars jarayoni, sharoit, maxsus bilim, prognozlash, modellashtirish, loyihalash, algoritmlashtirish.

## ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОЕКТНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ПРОЕКТНОГО ОБУЧЕНИЯ

**Аннотация:** В данной научной статье рассматриваются современные требования, предъявляемые к подготовке педагогических кадров в условиях модернизации образования, в том числе разработка и внедрение в практику новых методов, средств, технологий и организационных форм на основе формирования проектной компетентности, эффективные пути формирования проектной компетентности, а также содержание, объем, компоненты проекта, их структурирование в логической последовательности и ресурсы, ресурсы, средства, возможности и с координация, важные показатели проектных навыков, научно обосновано, что тщательное проектирование

этапов работы над проектом, определение особенностей деятельности, осуществляемой на каждом этапе, и разработка четкого плана действий требуют от педагога высокого уровня организационной и конструктивной подготовки, а также важности освоения исследовательских элементов в процессе проектной деятельности.

**Ключевые слова:** модернизация образования, прогнозирование, проектная компетентность, профессиональная компетентность, проектная деятельность, педагогическое проектирование, рефлексия, конструктивное, инновационное образование, компетентностный подход, педагогическая деятельность, знания, умения, навыки, учитель, общедидактическая, психолого-педагогическая подготовка, образовательный процесс, субъект, осмысление, процесс урока, условия, специальные знания, прогнозирование, моделирование, проектирование, алгоритмизация.

## FUNDAMENTALS OF THE DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS' PROJECT COMPETENCE BASED ON PROJECT-BASED LEARNING

**Abstract:** *This scientific article examines the modern requirements for the training of teaching staff in the context of modernization of education, including the development and implementation of new methods, tools, technologies and organizational forms based on the formation of project competence, effective ways of forming project competence, as well as the content, scope, components of the project, their structuring in a logical sequences and resources, resources, means, capabilities and coordination, important indicators of project skills, Scientifically based, that careful design of the stages of work on a project, identification of the specifics of the activities carried out at each stage, and the development of a clear action plan require a high level of organizational and constructive training from the teacher, as well as the importance of mastering research elements in the process of project activities.*

**Keywords:** *modernization of education, forecasting, project competence, professional competence, project activity, pedagogical design, reflection, constructive, innovative education, competence-based approach, pedagogical activity, knowledge, skills, teacher, general didactic, psychological and pedagogical training, educational process, subject, comprehension, lesson process, conditions, special knowledge, forecasting, modeling, design, algorithmization.*

### KIRISH. (INTRODUCTION).

Ta'limni modernizatsiyalsh sharoitida pedagog kadrlar tayyorlashga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bo'lajak o'qituvchining faoliyatini istiqbolli rejalashtirish, ta'lim natijalarini hamda o'quvchi shaxsining rivojlanishini prognoz qilish, ta'lim jarayonini boshqariladigan va natijador tizim sifatida qurishga qaratilgan loyihalash

kompetentligini rivojlantirishni taqozo etadi. Loyihalash kompetentligining shakllanishi o'qituvchiga o'quvchilar faoliyatiga rahbarlikni savodli tashkil etish, ta'lim jarayoni sub'yektlari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, yangi metodlar, vositalar, texnologiyalar va tashkiliy shakllarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi.

Shu bois bo'lajak o'qituvchilarda loyihalash kompetentligini shakllantirishning samarali yo'li sifatida loyihaviy ta'lim yondashuvi metodik jihatdan asosli tanlanadi. Ta'limni tayyor bilimlarni o'zlashtirishdan ko'ra, muammoli vaziyatni tahlil qilish, maqsad qo'yish, resurs va cheklovlarni hisobga olish, yechim variantlarini ishlab chiqish, natijani baholash va refleksiya qilish faoliyati orqali tashkil etadi. Bunday yondashuvda "loyihalash" texnik sohadan pedagogikaga kirib kelgan "oldindan proeksiya yaratish" g'oyasiga tayangan holda, ta'lim jarayonining maqsad-mazmun-metod-vosita-natija bog'liqligini ongli konstruksiyalash sifatida talqin qilinadi. "Pedagogik loyihalash" esa bo'lajak o'qituvchining ta'limiy vaziyatni tahlil qilish va optimal yechimni tanlash asosida o'quv jarayonining texnologik tuzilmasi hamda kutiladigan natijalarini oldindan ko'ra bilish va rejalashtirishga yo'naltirilgan kasbiy faoliyat turi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur kompetentlikni rivojlantirish jarayonida "loyihalash ko'nikmasi" alohida o'rin tutadi. O'qituvchining o'zining va o'quvchilarning kuzatiladigan harakatlari natijalarini oldindan ko'ra bilishi, uzoq muddatli maqsadlarga mos vazifalarni belgilashi, ta'lim mazmunini strukturalashi, fanlararo bog'lanishlarni o'rnatishi, o'quvchilar uchun qiyinchiliklarni oldindan prognoz qilishi hamda mashg'ulotlar tizimini bosqichma-bosqich rejalashtirishi bilan tavsiflanadi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD / (MATERIALS AND METHODS).**

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilar pedagogning loyihalash kompetentligini uning umumiy kasbiy kompetentligidagi eng muhim tarkibiy qismlardan biri sifatida baholaydilar. Shuning uchun "pedagogning loyihalash kompetentligi" tushunchasining mazmuniy mohiyatini ochib berish uchun, avvalo, uning tuzilmasini tavsiflash zarur. Mazkur nuqtayi nazardan N.O.Yakovlevaning [3] "Innovatsion tizimlarni pedagogik loyihalash" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida bildirilgan qarashlar alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchi loyihalash kompetentligini ta'lim jarayoniga ta'lim sifati oshishiga xizmat qiluvchi pedagogik loyihalarni tayyorlash va amaliyotga joriy etish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlar majmui sifatida talqin qiladi. Muallif loyihalash kompetentligi o'z-o'zidan paydo bo'ladigan psixik yangi sifat emasligini, aksincha, u maxsus tashkil etilgan pedagogik ta'sir va tizimli kasbiy tayyorlash ishlari orqali shakllantirilishini alohida ta'kidlaydi. Yakovleva fikricha, pedagog kasbiy kompetentligining bir qismi sifatida loyihalash kompetentligi oliy ta'limning o'quv jarayoni sharoitida muvaffaqiyatli shakllantirilishi mumkin [3].

Tadqiqotchilar V.S.Bezrukova, V.E.Radionov, V.V.Serikov qarashlariga ko'ra, loyihalash ko'nikmalari jumladan, konstruktiv harakatlarning muayyan turlari bir martalik o'zlashtirish natijasida emas, balki prognozlash, modellashtirish, loyihalash, algoritmlashtirish hamda loyihani amalda ro'yobga chiqarish bosqichlari izchilligi jarayonida shakllanadi. Mazkur ko'nikmalar pedagogik faoliyatning kelajakka yo'naltirilgan rejalashtirish mexanizmlarini ta'minlaydi va o'qituvchining ta'lim jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish, kutilayotgan natijani oldindan ko'ra bilish hamda shu natijaga eltuvchi optimal yo'lni tanlash qobiliyatini ifodalaydi. Shu ma'noda loyihalash ko'nikmalari o'qituvchining kasbiy-pedagogik kompetentligida integrativ o'rin egallab, ta'lim jarayonini tizimli boshqarish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va samarali yechimlar ishlab chiqish bilan uzviy bog'lanadi.

Olimlar ta'kidlaganidek, loyihalash ko'nikmalari ko'nikma sifatida aniq amaliy-intellektual harakatlar majmuini qamrab oladi. Avvalo, pedagog ta'limiy muammoni aniqlay olishi, vaziyatning ehtimoliy rivojlanish yo'nalishlarini oldindan ko'ra bilishi va rejalashtirilayotgan o'zgarishlarning oqibatlarini prognoz qilishi zarur. Keyingi jihat sifatida axborotni to'plash uchun manbalar va usullarni asosli belgilash, ya'ni zarur ma'lumotni topish, tanlash, tahlil qilish va umumlashtirishning samarali mexanizmlarini qo'llash ko'nikmasi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, loyihaning mazmuni, hajmi hamda tarkibiy qismlarini aniqlash, ularni mantiqiy izchillikda strukturalash va resurslar vaqt, vosita, imkoniyat bilan muvofiqlashtirish ham loyihalash ko'nikmasining muhim ko'rsatkichlaridan hisoblanadi.

Bundan tashqari, loyiha ustida ishlash bosqichlarini oldindan puxta loyihalash, har bir bosqichda bajariladigan faoliyatning xususiyatlarini belgilash va aniq harakatlar rejasini ishlab chiqish pedagogdan yuqori darajadagi tashkiliy va konstruktiv tayyorgarlikni talab etadi. Loyihaviy faoliyat jarayonida tadqiqot elementlarini egallash ham muhim bo'lib, bunda kuzatish olib borish, taxmin (gipoteza) ilgari surish, uni tekshirish hamda dalillarga tayangan holda xulosa chiqarish kabi amaliy-tadqiqiy harakatlar loyihaning sifatini oshiradi. Shuningdek, loyihaning shaxsiy va jamoaviy maqsadlarini aniq formulalash, ya'ni yakuniy natija (mahsulot)ni hamda uni taqdim etish shaklini belgilash loyihaviy ishning maqsadlilik va natijadorlik tamoyillarini ta'minlaydi.

Nihoyat, pedagogik faoliyat jarayoni va natijalarini baholash mezonlarini belgilash loyihalash ko'nikmasining yakunlovchi, biroq strategik jihatdan eng muhim bo'g'inidir. Chunki, aynan mezonlar orqali loyiha natijasining maqsadga mosligi, ta'lim oluvchilar rivojlanishidagi o'zgarishlar, jarayonning samaradorligi hamda takomillashtirish yo'nalishlari aniqlanadi.

Loyihalash ko'nikmalarining mazmuniy tarkibini aniqlash pedagogik loyihalash kompetentligini shakllantirish jarayonini ilmiy asosda tashkil etishda muhim metodik ahamiyat kasb etadi. Mazkur masala bo'yicha tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar ilgari surilgan bo'lib, ularda loyihalash ko'nikmalari pedagogning

rejalashtirish, prognozlash, modellashtirish hamda ta'lim jarayonini tizimli konstruksiyalash faoliyati bilan uzviy bog'liq tarzda talqin qilinadi. Shu nuqtayi nazardan, P.I.Pidkassistiy[2] tomonidan loyihalash ko'nikmalarining tarkibini izchil tizim sifatida tasniflashga qaratilgan qarashlar alohida ilmiy qimmatga ega.

Pedagogik loyihalash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar orasida G.E. Muravyovaning ishlari alohida e'tiborga molik bo'lib, unda o'qituvchining loyihalash faoliyatini samarali amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar tizimi ilmiy asosda ishlab chiqilgan hamda amaliy jihatdan asoslangan. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, o'qituvchi ta'lim jarayonini natijador tashkil etish, belgilangan pedagogik vazifalarni to'g'ri qo'yish va ularni maqbul yechimlar orqali hal etish uchun loyihalashga oid puxta tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim. Bunda o'qituvchi faoliyatida loyihalash jarayonini to'laqonli amalga oshirish uchun nafaqat umumiy didaktik bilimlar, balki loyihaviy fikrlash, prognozlash, modellashtirish, rejalashtirish va baholashga doir tizimli ko'nikmalar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchining loyihalash tayyorgarligini ikki asosiy blok orqali izohlaydi: tayanch (asosiy) hamda maxsus loyihalash bilim va ko'nikmalari. Tayanch bilim va ko'nikmalar pedagogik jarayonning umumiy mantiqi, maqsad-muddao va natijalar tizimi, ta'lim mazmuni hamda ta'lim jarayonining metodik asoslarini anglash va konstruksiyalash imkonini bersa, maxsus loyihalash bilim va ko'nikmalari ta'lim jarayonini konkret sharoitlarda loyihalash, didaktik vaziyatlarni tahlil qilish, muammoli yechim variantlarini ishlab chiqish, resurslarni moslashtirish hamda nazorat-baholash mexanizmlarini loyihalashni ta'minlaydi deb ta'kidlaydi tadqiqotshi olim o'zining ilmiy ishlarida[1].

Demak, Muravyova konsepsiyasida loyihalash kompetentligini shakllantirish o'qituvchining umumkasbiy tayyorgarligi bilan bevosita bog'langan bo'lib, ayni paytda u ta'limni innovatsion asosda qayta qurish va kafolatli natijaga erishishning zarur sharti sifatida talqin qilinadi. G.E.Muravyova ta'lim jarayonini samarali loyihalash uchun o'qituvchi kasbiy tayyorgarligi tarkibida ikki asosiy blokni ajratadi: tayanch (asosiy) bilim va ko'nikmalar hamda maxsus loyihalash bilim va ko'nikmalari. Tadqiqotchining fikricha, aynan mana shu ikki blokning uyg'unligi o'qituvchiga ta'lim jarayonini maqsadga yo'naltirilgan, metodik jihatdan asosli va natijador tarzda qurish imkonini beradi. Tayanch bilim va ko'nikmalar o'qituvchining umumdidaktik va psixologik-pedagogik tayyorgarligini ifodalab, ta'lim jarayoni subyekti bo'lgan sinfni chuqur anglash hamda dars jarayonini tegishli sharoitga mos tashkil etishga xizmat qiladi. Maxsus bilim va ko'nikmalar esa bevosita ta'lim jarayonini loyihalashning mohiyati, tartibi va texnologiyasini egallash, didaktik elementlar o'rtasida muvofiqlik yaratish hamda metod-vositani tanlash va qo'llashni ilmiy asosda amalga oshirish bilan bog'liqdir[1].

G.E. Muravyova tasnifida tayanch bilim va ko'nikmalarning birinchi yirik yo'nalishi sifatida o'qituvchining sinfning psixologik-pedagogik xususiyatlarini bilishi

ko'rsatiladi. Bunda pedagog sinfning umumiy tayyorgarlik darajasi, tayyorgarlikning notekisligi, intizom va uyushqoqlik holati, o'quvchilarning o'qishga hamda fanga munosabati, o'quv faoliyatining turli ko'rinishlariga nisbatan munosabat, diqqatning barqarorligi, faollik va mustaqillik darajasi, joriy tayyorgarlik holati, shuningdek, ayrim o'quvchilarning qobiliyati va tayyorgarligi kabi ko'rsatkichlarni aniqlash mezonlarini yaxshi bilishi talab etiladi. Shu bilan birga, o'qituvchi sinfning mazkur psixologik-pedagogik xususiyatlarini diagnostika qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Chunki, diagnostik tahlil natijasi darsni rejalashtirish va loyihalash jarayonida asosiy tayanch ma'lumot manbasi sifatida xizmat qiladi.

#### **MUHOKAMA. (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION).**

G.E. Muravyova tomonidan ajratilgan tayanch va maxsus loyihalash bilim hamda ko'nikmalari tizimi bo'lajak o'qituvchini ta'lim jarayonini ilmiy asoslangan tarzda loyihalashga tayyorlashda metodologik tayanch vazifasini bajaradi. Ushbu tizim o'qituvchining sinf imkoniyatlarini puxta tahlil qilish, didaktik maqsad va mazmuni aniqlashtirish, metod hamda vositalarni sharoitga mos tanlash, texnologik yondashuvni to'g'ri belgilash orqali ta'lim natijalarini kafolatlashga yo'naltirilgan kompleks kasbiy tayyorgarlik mezonlarini ifodalaydi.

Bizning fikrimizcha, olim tomonidan taklif etilgan tayanch hamda maxsus loyihalash bilim va ko'nikmalari tizimi ta'lim jarayonini yaxlit holda loyihalashda o'qituvchi uchun zarur bo'lgan loyihalash faoliyati komponentlarining eng muhim va to'liq kompleksini aks ettiradi. Ushbu tizimning afzalligi shundaki, u o'qituvchining loyihaviy faoliyatini faqat rejalashtirish bilan cheklamaydi, balki ta'limiy vaziyatni diagnostika qilish, didaktik maqsadlarni aniqlashtirish, o'quv materialini sinfning imkoniyatlariga moslashtirish, texnologik qarorlarni tanlash, jarayonni boshqarish va natijani baholash mexanizmlarini ham bir butun tarzda qamrab oladi.

Loyihaviy ta'lim asosida bo'lajak o'qituvchilarning loyihalash kompetentligini rivojlantirish metodlari mazmunan uch yo'nalishda birlashadi: birinchisi, muammoli-analitik metodlar muammo qo'yish, pedagogik vaziyatni tahlil qilish, ehtiyoj va resurslarni diagnostika qilish bo'lib, ular loyihaviy vaziyat chegaralarini kengaytirish, ya'ni muammoga oid axborotni yig'ish va tahlil qilish, maqsad hamda mezonlarni aniqlashtirish orqali loyihaga "divergensiya" bosqichini yaratadi; ikkinchisi, konstruktiv-dizayn metodlari (ta'lim natijalarini kompetensiyalar va indikatorlar orqali belgilash, modul/dars ssenariysi va texnologik xarita tuzish, topshiriqlar tizimini loyihalash, fanlararo integratsiya, baholash vositalarini ishlab chiqish) bo'lib, bunda konsepsiyalar va yechim variantlari ishlab chiqiladi, ya'ni "transformatsiya" bosqichi amalga oshadi; uchinchisi, implementatsion - reflektiv metodlar (pilot sinov, monitoring, formatif baholash, yakuniy taqdimot va himoya, refleksiya va qayta loyihalash) bo'lib, ular tanlangan variantni resurslar va vaqt sarfini optimallashtirgan holda konkretlashtirish, natijani baholash va takomillashtirishni ta'minlaydi, ya'ni "konvergensiya" bosqichi yakunlanadi. Metodik bloklar loyiha faoliyatining mantiqiy

yo'lini ifodalaydi: muammoni qo'yish va axborot yig'ishdan boshlab, strategiya - taktikani tanlash, g'oyalarni formulalash, variantlarni taqqoslash, sintez va baholash, optimal yechimni tanlash hamda konkretlashtirishgacha bo'lgan bosqichlar ketma-ketligi ta'lim jarayonining loyihaviy algoritmini tashkil etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda loyihalash kompetentligini rivojlantirish bosqichlari esa maqsadga muvofiq ravishda quyidagicha izchil quriladi: motivatsion-yo'naltiruvchi bosqich - loyihaviy ta'limning qadriy yo'nalishini shakllantirish, kasbiy ehtiyoj va maqsadlarni anglash, loyihalash faoliyatining natijadorlik mezonlarini tushuntirish; nazariy-kognitiv bosqich - loyihalash, pedagogik loyihalash va loyihalash ko'nikmalariga doir tushunchalar apparatini egallash, ta'lim natijalarini kompetensiyalar orqali ifodalash, didaktik dizaynning asosiy tamo yillarini o'zlashtirish; amaliy-konstruktiv bosqich - kurs va mavzular bo'yicha istiqbolli reja tuzish, kalendar rejalashtirish, fanlararo bog'lanishlarni loyihalash, takrorlash va tizimlashtirish materialini taqsimlash, o'quvchilar faoliyatining oqilona turlarini belgilash, topshiriqlar va uy vazifalari tizimini ishlab chiqish, ko'rgazmali vositalar va resurslarni tanlash kabi loyihalash ko'nikmalarini mashq qilish; ijodiy-innovatsion bosqich - ta'lim loyihasini mustaqil yaratish, yangi metod va vositalarni integratsiyalash, ta'lim jarayonini turli sharoitlarga moslab qayta loyihalash; reflektiv-baholash bosqichi - loyihani sinovdan o'tkazish, natijalarni tahlil qilish, baholash mezonlari asosida xulosa chiqarish va takomillashtirish bo'yicha qayta dizayn qarorlarini qabul qilish.

Mazkur bosqichlarning har biri bo'lajak o'qituvchida loyihalash kompetentligini tarkibiy jihatdan (maqsadni aniqlash, mazmuni konstruksiyalash, metod va vositalarni tanlash, natijani prognoz qilish, monitoring va refleksiya) izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, loyihaviy ta'lim bo'lajak o'qituvchining loyihalash kompetentligini "rejalashtirish ko'nikmasi" darajasida emas, balki ta'lim jarayonini tizimli model sifatida qurish, natijani oldindan ko'ra bilish va innovatsion yechimlar yaratishga qodir kasbiy-pedagogik sifat darajasida shakllantirishning metodik asosini ta'minlaydi.

Maxsus loyihalash bilim va ko'nikmalari blokida esa, avvalo, ta'lim jarayonini loyihalashning mohiyati va tartibini bilish muhim o'rin egallaydi. Bunga qo'shimcha ravishda, o'qituvchi mavzu (o'quv materiali mazmuni), didaktik maqsad, metodlar, vositalar hamda ta'limni tashkil etish shakllarini sinfning psixologik-pedagogik xususiyatlari bilan uyg'unlashtirish, ya'ni sharoitga moslashtirish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Ushbu ko'nikma dars dizaynini shunchaki standart shaklda emas, balki konkret sinfning rivojlanish darajasi va ehtiyojlariga mos ravishda konstruksiyalashni ta'minlaydi. Shuningdek, o'qitishning texnologik usullarini didaktik maqsad, mavzuning metodik xususiyatlari, o'quvchilarning o'quv imkoniyatlari va mavjud ta'lim sharoitlari bilan bog'liq holda tanlash va qo'llash ham maxsus loyihalash kompetentligining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Tayanch bilim va ko'nikmalarning ikkinchi yirik yo'nalishi umumdidaktik bilim va ko'nikmalar bilan tavsiflanadi. Bu yo'nalishda o'qituvchi didaktik maqsadlarni bilishi va ularni to'g'ri belgilay olishi, maqsadlarga erishish darajasini aniqlash ko'nikmasiga ega bo'lishi, o'qitish metodlarini, ularning imkoniyatlari va qo'llash xususiyatlarini chuqur bilishi talab etiladi. Bunda metodlarning maqbulligini baholash mezonlarini bilish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, pedagog didaktik vositalarning asosiy turlari, ularni qo'llash shartlari hamda didaktik vositalardan foydalanish metodikasi va texnikasi bo'yicha yetarli bilim va amaliy ko'nikmaga ega bo'lishi lozim. O'qituvchi turli metod va vositalarni bir-biri bilan uyg'unlashtirib qo'llay bilishi, o'quv ishlarining turlarini bilishi hamda o'quv-bilish faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha puxta tayyorgarlikka ega bo'lishi ta'lim jarayonini loyihalash sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

### **NATIJARAR (RESULTS).**

Bo'lajak o'qituvchilarda loyihalash kompetentligini shakllantirish muammosini chuqur o'rganishda ushbu hodisaning shakllanish va rivojlanish tarixiga murojaat qilish metodologik jihatdan maqsadga muvofiqdir. Bunda fan metodologiyasida keng qo'llaniladigan, ijtimoiy-amaliy tajriba asosida muayyan bilish obyektini o'zlashtirish bosqichlarini ajratishga doir an'anaviy yondashuvga tayangan holda ish yuritiladi. Mazkur yondashuvga ko'ra, o'rganilayotgan hodisaning shakllanish jarayonida uchta muhim davr ajratiladi: birinchi davr hodisa haqidagi bilimlarning tarqoqligi, yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi, ichki ziddiyatligi hamda terminologiyaning barqaror shakllanmaganligi bilan tavsiflanadi; ikkinchi davr hodisa ning ayrim jihatlari muayyan yo'nalish yoki soha doirasida ilmiy tadqiq etilishi, ya'ni ilmiy tushuntirish va empirik tasdiqlash ishlari kuchayishi bilan xarakterlanadi; uchinchi davr esa hodisaning mohiyatini kompleks tarzda o'rganish, umumlashtirish hamda olingan ilmiy xulosalarni boshqa sohalarga tatbiq etish jarayonlari bilan ifodalanadi. Mazkur davriylik loyihalash kompetentligini shakllantirish muammosiga nisbatan ham qo'llanilganda, uning nazariy-metodologik asoslari qanday evolyutsiya qilgani, loyihalashning didaktik va kasbiy-pedagogik jihatlari qanday bosqichlarda chuqurlashgani hamda bugungi kompetensiyaviy ta'lim sharoitida u qanday yangicha mazmun kasb etayotganini ilmiy asosda izohlash imkonini beradi.

Pedagogika doirasida talabalarni loyihalash faoliyatiga o'rgatish masalasi bo'yicha olib borilgan bevosita ilmiy izlanishlar E.S. Zair-Bek, G.E. Muravyova, M.P. Sibirskaya va boshqalar o'qituvchining loyihalash faoliyatining mohiyatini nazariy jihatdan asoslash, uning pedagogik vazifalarini aniqlash hamda kutiladigan natijalarini tavsiflashga muhim ilmiy zamin yaratdi. Mazkur tadqiqotlarda loyihalash pedagogning kasbiy faoliyatidagi alohida yo'nalish sifatida talqin qilinib, uni amalga oshirish mexanizmlari va metodik yo'llari bosqichma-bosqich ochib beriladi. Jumladan, o'qituvchini loyihalash faoliyatiga tayyorlash bo'yicha zarur bo'lgan harakatlar ketma-ketligini ishlab chiqish, ta'lim jarayonini loyihalashning tashkiliy-didaktik asoslarini

aniqlashtirish, shuningdek, ushbu faoliyatning samaradorligini belgilovchi shart-sharoitlarni ilmiy jihatdan asoslab berish mazkur yo‘nalishdagi izlanishlarning asosiy natijalari sifatida ko‘rinadi.

Shu bilan birga, mazkur davrda loyihalash kompetentligini aynan kompetentlik nazariyasi doirasida shakllantirishga bag‘ishlangan maxsus, tizimli va kompleks tadqiqotlar yetarli darajada mavjud bo‘lmagan. Biroq bu holat loyihalash kompetentligini rivojlantirishning metodologik poydevori shakllanmagan degani emas. Aksincha, mazkur davrda pedagogik fan va amaliyotda loyihalashga oid metodologik asoslar ikki muhim yo‘nalish bo‘yicha rivojlanib bordi. Birinchi yo‘nalish o‘qituvchining loyihalash faoliyatini pedagogik jarayonni konstruksiyalash, prognozlash va modellashtirish bilan bog‘liq kasbiy faoliyat turi sifatida ilmiy asoslashga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi yo‘nalish esa loyihalashga tayyorlash jarayonini didaktik tizim sifatida tashkil etish, bunda ko‘nikma va malakalarni bosqichma-bosqich shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan.

Mazkur g‘oyalarni umumlashtirishning o‘ziyoq o‘sha davrda pedagogik fan va amaliyot uchun dolzarb bo‘lgan muammolarga yangicha yondashuvlarni shakllantirishga, ta‘lim jarayonini samarali loyihalashga xizmat qiladigan innovatsion metodlarni izlab topishga hamda bo‘lajak o‘qituvchi kadrlarni kasbiy tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Natijada loyihalash faoliyatining nazariy mohiyati, amaliy vazifalari va uni o‘rgatish mexanizmlari bo‘yicha shakllangan ilmiy qarashlar keyingi bosqichlarda loyihalash kompetentligini kompetensiyaviy ta‘lim talablari asosida rivojlantirishga zamin bo‘lib xizmat qildi.

Muammo doirasidagi mavjud ilmiy ishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oliy ta‘lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarda loyihalash kompetentligini shakllantirish hamda uni rivojlantirish uchun zarur ilmiy-amaliy imkoniyatlar mavjud. Biroq mazkur muammoni samarali hal etish, bir tomondan, asosiy tushunchaviy pozitsiyalarni yanada aniq belgilash va konkretlashtirishni, ikkinchi tomondan esa metodologik asoslarni aniqlash, pedagogika yo‘nalishi talabalari uchun loyihalash kompetentligining zarur darajasini shakllantirish shart-sharoitlarini asoslashni taqozo etadi. Shu ma‘noda mazkur masalaning yechimi faqat metodik tavsiyalar bilan cheklanmay, u kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning mazmuni, texnologiyasi va natijalarini baholash tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kompleks yondashuvni talab qiladi.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, bo‘lajak o‘qituvchilarda loyihalash kompetentligini shakllantirish muammosiga oid tarixiy-pedagogik tahlil shuni ko‘rsatadiki, pedagogika fani mazkur yo‘nalishda kompleks tadqiqotlarni endigina faol bosqichda boshlamoqda. Bu holat professional-pedagogik fan nazariyasi va amaliyotida mazkur muammoning hali yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, xususan, loyihalash kompetentligini shakllantirishning metodologik modeli, diagnostik mezonlari hamda samaradorlik shartlarining bir xil talqin etilmasligi bilan izohlanadi. Natijada,

loyihalash kompetentligini shakllantirish jarayoni ko‘pincha parchalanib, ayrim fanlar yoki amaliy mashg‘ulotlar doirasida epizodik tarzda amalga oshirilishi mumkin.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda loyihalash kompetentligini shakllantirish jarayonida e‘tiborga olinishi majburiy bo‘lgan quyidagi tamoyillarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, loyihalash kompetentligi o‘z-o‘zidan shakllanmaydi; uni rivojlantirish uchun maxsus tashkil etilgan pedagogik ish, ya‘ni maqsadga yo‘naltirilgan o‘qitish va amaliy mashg‘ulotlar tizimi talab etiladi. Ikkinchidan, loyihalashga oid bilim va ko‘nikmalar statik xarakterga ega emas; ular dinamik ravishda boyib boradi, sharoit va ehtiyojga qarab o‘zgaradi, bu esa loyihalash kompetentligiga faollik, moslashuvchanlik hamda yangilanish qobiliyatini beradi. Uchinchidan, tadqiq etilay otgan muammo oliy ta‘lim talabalarida loyihalash kompetentligini baholash uchun mos diagnostik-me‘yoriy apparat ishlab chiqishni talab etadi, chunki baholash mezonlarisiz kompetentlik darajasini aniqlash ham, uni boshqarib rivojlantirish ham qiyin.

#### **XULOSA (CONCLUSION).**

Xulosa qilib aytganda, loyihalash kompetentligining tuzilmasiga bilim va ko‘nikmalar bilan bir qatorda kasbiy jihatdan ahamiyatli shaxsiy sifatlarni ham kiritish maqsadga muvofiqdir. Bunday sifatlar (mas‘uliyat, tashabbuskorlik, kreativ fikrlash, tanqidiy tahlil, jamoa bilan ishlash madaniyati, refleksiya) loyihalash jarayonining natijadorligini belgilovchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Ularni shakllantirish oliy ta‘lim sharoitida ta‘minlanishi mumkin, biroq bu masalada ikki muhim muammo mavjud: birinchidan, loyihalash kompetentligiga kiritiladigan shaxsiy sifatlarning tarkibi bo‘yicha turli yondashuvlar orasida sezilarli tafovutlar uchraydi; ikkinchidan esa, shaxs sifatlarini baholashda subyektivlik ehtimoli yuqori bo‘lgani bois kompetentlik darajasini aniqlash va mezonlash jarayonida muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shuning uchun loyihalash kompetentligini baholash tizimini ishlab chiqishda shaxsiy sifatlarni imkon qadar indikator va diagnostik vositalar orqali obyektivlashtirish, ya‘ni ularning amaliy faoliyatdagi namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari asosida baholash zarur hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Муровьев Г.Е. Педагогическое проектирование и моделирование образовательного процесса. – М.: Педагогика, 2004. – С. 112–115.
2. Пидкасистый П.И. Педагогика. – М.: Педагогическое общество России, 2002. – С. 258
3. Яковлева Н.О. Педагогическое проектирование инновационных систем: дисс. ... докт. пед. наук. – 2003
4. D.K.Rafikova, S.A.Ismoilova Loyihalash kompetentligi kasbiy-pedagogik kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida. “Ilm – fan xabarnomasi, SCIENCE BULLETIN, ВЕСТНИК НАУКИ”. Volum 12, issue 2, Mart 2026